

## APIUM GRAVEOLENS L- KARAFS, XUSHBO'Y KARAFAS BOTANIK TASNIFI VA SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI

M. Aminova

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali*

**Аннотация:** *Maqolada dorivor o'simlik Apium graveolens L- Karafs, xushbo'y karafasni botanik tavsifi, tarqalish areallari va shifobahshlik xususiyatlari keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *O'simlik, qubba, efir moyli, flavonoid, dorivor.*

### Kirish

Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10—12 ming turi bor. 1000 dan ortiq o'simlik turlarining kimyoviy, farmakologik va dorivorlik xossalari tekshirilgan. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 577 turi mavjud. shulardan hozirgi vaqtda 250 turi ilmiy tabobatda ishlatilmoqda. Dorivor o'simliklarning ta'sir etuvchi moddasi — alkaloidlar, turli glikozidlar (antroglikozidlar, yurakka ta'sir etuvchi glikozidlar, saponinlar va b.), flavonoidlar, kumarinlar, oshlovchi va boshqa shilliq moddalar. Efir moylari, vitaminlar, smolalar va boshqa birikmalar bo'lishi mumkin. Ko'p o'simliklardan mikroorganizm va viruslarni yo'qotadigan antibiotiklar va fitonsidlarga boy preparatlar tayyorlanadi. Odatda bir guruhga xos o'zaro yaqin kimyoviy birikmalar bir oila yoki turkumga mansublarda uchraydi, shu bilan birga ba'zi kimyoviy birikmalar bir-biriga yaqin bo'lmagan, turli oilaga mansub o'simliklar tarkibida ham bo'lishi mumkin. Hozirgi davrda dorivor o'simliklarni turi ko'payib, xalq tibbiyoti shifobaxsh o'simliklar bilan boyigan. Ilmiy tabobatda ishlatiladigan dorivor o'simliklarning aksariyati asrlar davomida xalq ishlatib kelgan o'simliklardan olingan. Hozirgi kunda ham dorivor o'simliklarga bo'lgan talab yanada kuchaymoqda bu esa farmasevtika va xalq tabobatini yanada rivojlanishiga olib kelmoqda.

Botanik tasnifi. Karafs selderdoshlar (soyabonguldoshlar )Apiaceae (Umbelliferae) oilasiga mansub , bo'yi 50 sm gacha o'sadigan ko'p yillik o't o'simlik. Poyasi tik o'sadi, o'rta qismidan boshlab shohlangan. Barglari cho'zik yoki lansetsimon bo'lakchalarga patsimon ajralgan. ( poyasininh yuqori qismidagilari uch bo'lakga qirqilgan) bo'lib, uzun bandli ( ildizoldi va poyaning pastki qismidagilari) yoki bandsiz poyasi bilan shohlarida ketma –ket o'rnashgan. Mayda oq rangli, besh bo'lakli gullari murakkab soyabon to'p gulliga joylashgan. Mevasi yumaloq qo'shaloq pista. Iyul- oyida gullaydi, mevasi avgust – sentabrda pishadi.

Geografik tarqalishi. Rossiyaning Yevropa qismi O'rta Osiyo , Kavkazda kanal va ariq bo'ylarida, daryo va qirg'oqlarida, sug'oriladigan va nam yerlarda , tog' etaklarida o'sadi.Ziravor o'simlik sifatida keng miqyosda o'stiriladi. O'simlik an'anaviy arab va islom tabobatida "Karafs" nomi bilan tilga olingan. Qadimgi adabiyotlarda u Yunonistonda Udasalyon deb ham atalgan. Arab va islom adabiyotida qoraflarning besh xil turi qayd etilgan bo'lib, ular tog'larda,toshloq joylarda, suv va hovuzlar yaqinida o'sadi.

Qo'llaniladigan qismi. Tibbiyotda karafsning yer ustki qismi, mevasi va bazan ildizi ishlatiladi.Yer ustki qismi o'simlik gullagan vaqtida yig'iladi.Soya yerda qurutiladi yoki qurutmay qo'llaniladi.Mevasi pisha boshlaganda o'simlik o'riladi, xirmonda quritib, yanchib , elab mevasini ajratib olinadi. Ildizi kuzda kovlab olinadi, suv bilan yuvib tuproqdan tozalanadi va ochiq yerda quyoshda quritiladi.(yiriklari bo'lakchalarga bo'linadi.)

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Karafsning yer ustki qismi tarkibida 0,1 % efir moyi , vitamin C (20mg%) va flavonoid , glikozoid , mevasida 6% efir moyi , 12-17 % yog' frokumarinlar va boshqa moddalar bor.Karafs mevasi va uning damlamasi xalq tabobatida ko'ngil aynishi, isitma, xikichoq tutganda va og'riq bilan o'tadigan xayiz davolashda hamda yel xaydovchi ishtaxa ochuvchi dori sifatida qo'llaniladi. Yer ustki qismi va ildizidan tayyorlangan damlamasi ham xalq tabobatida ishtaxa ochuvchi, ovqat hazmini yaxshilovchi , siydik haydovchi , surgi sifatida hamda buyrak siydik kasalliklarini, bod temiratki kasalliklarini davolashda ishlatiladi.Bargi yoki ildizi damlamasi bilan yiringli yaralar yuviladi. Qurutilmagan barglari maydalab yaralar ustiga qo'yiladi.Karafs o'simligining siydik xaydovchi tasiriga ega ekanligi tajribada aniqlangan va qurutilmagan yer ustki qismidan olingan sukapigraveol preparati shu maqsadda ilmiy tibbiyotda qo'llanilishga tavsiya qilingan.

Apium graveolens Linn antioksidant, antispazmodik, yallig'lanishga qarshi va og'riq qoldiruvchi ta'sirlarga ega. Selderey urug'lari yo'g'on ichak yarasi, maydonini va indeksini kamaytirish uchun ishlatiladi.Uning tarkibida Kofein kislotasi, xlorogen kislotasi, apiin, apigenin, rutaretin uchraydi. Hozirgi kunda Apium graveolens Linn asosan jigar va taloq kasalliklarida, miya kasalliklarida, tana og'rig'ida va uyqu buzilishida qo'llaniladi. Afrika an'anaviy tibbiyotida qon bosimini pasaytirish uchun yurak tonik sifatida ishlatiladi. Shuningdek, u ona suti sekretsiyasini oshiradi. Arpa bilan birga seldereyni dietada iste'mol qilish qon zardobidagi jigar fermentlarini, umumiy xolesterinni, triglitseridlarni susaytiradi va xolesterin bilan oziqlangan dietada lipid profilini yaxshilaydi.

REFERENCES:

1. Sulaymonov I.J, Ergashev D.T. “Dorivor o’simliklar yetishtirish texnologiyasi “ Namangan 2020.
2. Syed-Sufiyan F, Rajeev KS. Review on the pharmacognostical and pharmacological characterization of *Apium graveolens* Linn. *Indo Glob J Pharm Sci.* 2012;2:36–42.
3. Kooti W, Ali-Akbari S, Asadi-Samani M, Ghadery H, Ashtary-Larky D. A review on medicinal plant of *Apium graveolens*. *Adv Herb Med.* 2014;1:48–59.
4. Birt D, Mitchell D, Gold B, Pour P, Pinch H. Inhibition of ultraviolet light induced skin carcinogenesis in SKH-1 mice by apigenin, a plant flavonoid. *Anticancer Res.* 1996;17:85–91. [PubMed] [Google Scholar].